



# TARAKKIYAT TADQIQOTLARI | ИССЛЕДОВАНИЯ РАЗВИТИЯ DEVELOPMENT STUDIES

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНЛАР | НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ КОНФЕРЕНЦИИ  
SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCES

Volume II, Issue-23, (November) 2024

Journal homepage: <https://inashr.uz/index.php/rid>

**ODILOVA Naira Gulyamovna**

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU*

*Psixologiya kafedrasida dotsenti,*

*psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

## PSIXOLOGİYADA O'SMIRLAR AXLOQIY O'ZINI-O'ZI ANGLASH MUAMMOSINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Butunjahonda inson hayotining axloqiy masalalari, kengroq ma'noda shaxs axloqiy sohasi mexanizmlari va axloqiy o'zini o'zi anglash jarayonining shakllanishi, ijtimoiy munosabatlarga kirishish, ijtimoiy o'zaro ta'sir hamda o'zini to'liq namoyon qilish uchun qulay sharoit yaratish, jamiyatga muvaffaqiyatli moslashish jarayonlari, shaxsning o'zini "ijtimoiy qabul qilishi" muhim muammolardan biri bo'lib qolmoqda. "Madaniy rivojlanish jarayonida axloqiy qadriyatlar, xususan, insonparvarlik, adolat, g'urur, vijdon, iroda, ezgulikka bo'lgan ishonch va o'zi, oilasi, Vatani oldida axloqiy burchni bajarishga bo'lgan intilish" muhim ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Bu borada axloqiy ong, axloqiy o'zini o'zi anglash, shaxs qadriyatlari tizimida axloqiy tushunchalarni barqarorlashtirishni ta'minlashning uslubiy asoslarini rivojlantirishni taqozo etmoqda va uning dolzarbligini ko'rsatmoqda.

Respublikamiz olimlaridan M.G.Davletshin, E.G'.G'oziyev, V.A.Tokareva, N.S.Safayev, D.G.Muxamedova, O'.B.Shamsiyev, G.A.Bogdalova, N.G.Kamilova, G.M.Shakirova, N.B.Atabayeva, G.V.Xrulnova, R.A.Ubaydullayeva va boshqalarning tadqiqotlarida qadriyat-motivatsion sohani rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda yoshlarni tayyorlashni takomillashtirish masalalari, moslashuvchanlik, axloqiy normativlik, axloq, axloqiy e'tiqodning shakllanishi, axloqiy rivojlanish, milliy o'zlikni anglash, o'zini o'zi boshqarish, axloqiy e'tiqodni shakllantirish yo'llari hamda O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining ma'naviy-axloqiy qadriyatlari jihatlari ham o'rganilgan. M.R.Alijanova, J.Asamatdinova, F.R.Jumayeva, L.A.Teshabayeva va boshqalar tomonidan yosh avlodni axloqiy-estetik tarbiyalash masalalari, ular rivojlanishining psixologik-pedagogik shartlari tadqiq qilingan.

Psixologiyada o'smirlarning axloqiy o'zini o'zi anglashini rivojlantirishni o'rganishning nazariy va metodologik asoslarini, axloqiy o'z-o'zini anglashni rivojlantirish muammosini, uning tuzilishini, axloqiy me'yorlar va qadriyatlarni shakllantirish hamda rivojlantirishni, shaxsiy sifatga ekvivalent bo'lgan axloqiy motivlarning namoyon bo'lishining xususiyatlarini tavsiflaydi, ular har doim olimlarni qiziqtirgan va qiziqtiradi. Shu bilan birga, jahon hamjamiyatida ro'y berayotgan zamonaviy voqealar, asosan, o'sib borayotgan shaxsning pragmatik yutuqlari roliga va shu bilan birga axloqiy hamda ma'naviy salohiyatni oshirishga qaratilgan. O'smirlarning axloqiy o'zini o'zi anglashini shakllantirishga oid turli olimlarning pozitsiyalarini tahlil qilish ushbu muhim jarayonda ijtimoiy-psixologik jihatning qanchalik muhimligini ko'rsatadi.

Zamonaviy olimlarning umumlashtirilgan g'oyalari asoslanib, axloqiy o'zini o'zi anglash, qoida tariqasida, tegishli mazmuniy-funksional xususiyatlar bilan tavsiflanishi mumkin, ular ko'p sonli olimlarning fikriga ko'ra, axloqiy vijdon, axloqiy pozitsiya, yaxshilik (foyda) istagan boshqa kishining ijobiy qiyofasini qamrab oladi. Shu bilan birga, axloqiy o'zini o'zi anglashning eng muhim funktsiyalaridan biri bu asosda axloqiy ahamiyatga ega maqsadga erishish uchun shaxs tuzilishidagi umuminsoniy axloqiy imperativlarning individual maksimal bilan o'zaro munosabatlarining sinergiyasini ta'minlash funktsiyasidir.

Ulg'ayish davrida insonning xatti-harakatlarida qayta-qayta amalga oshiriladigan axloqiy yangiliklar Men-axloqiy shaxsning yanada barqaror shakllanishiga aylanadi. Ammo o'zlashtirish va amalga oshirish jarayonlari o'z-o'zidan amalga oshirilmaydi, balki o'smirning axloqiy o'zini o'zi boshqarish, axloqiy identifikatsiya, empatiya va intuitsiya kabi me'yoriy-qadriyatli o'zini o'zi anglash mexanizmi bilan bog'liq. Bundan tashqari o'smirlik davrida egotsentrizm bilan bir qatorda axloqiy detsentratsiyaning paydo bo'lishi shaxsning axloqiy mulohazalari, kechinmalari va yo'nalganligidagi boshlang'ich nuqtaning o'zgarishi, harakatning tashqi me'yoriy to'g'riligidan muayyan shaxs xatti-harakatining ichki ahamiyati (axloqiy aniqliq)ga o'tish bilan bog'liq. Men-axloqiy sohasini bunday qayta tuzish bu me'yorning haqiqiy qiymatini anglash imkoniyati, ya'ni ushbu me'yordan tashqariga chiqishdir.

O'smirlarning axloqiy o'zini o'zi anglashining shakllanishi bo'yicha turli olimlarning pozitsiyalarini tahlil qilish ushbu muhim jarayonda ijtimoiy-psixologik jihatning yuqori ahamiyatini ko'rsatadi. Aksariyat tadqiqotchilar axloqiy o'zini o'zi anglash shakllanishi o'smirlar tarbiya muhitining o'ziga xos xususiyatlari, uning axloqiy kompetensiyasi, axloqiy tuyg'ularning rivojlanish xususiyatlari va ushbu yosh toifasidagi shaxsning referent muhitidagi mavqeyi bilan barqaror bog'liqligini ta'kidlaydilar.


Ilmiy ishlarning ko'pchilik qismida o'smirlarning axloqiy o'zini o'zi anglashining ayrim jihatlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratiladi va nisbatan kamdan-kam hollarda ularni integratsiyalashga urinishlar mavjud.

Bundan tashqari, o'smirlik davrida insonning ijobiy va salbiy axloqiy fazilatlarini haqidagi bilimlar miqdori ortadi, tegishli xulq-atvor normalaridan xabardorlik oshadi, axloqiy e'tiqodlar tizimi shakllanadi. Shu bilan birga, odatda o'smirlarning axloqiy me'yorlar haqidagi yetarli darajada xabardor emasligi ularning zaif differentsiatsiyasiga olib keladi.

O'smirlik davrida insonning axloqiy o'zini o'zi anglashining tuzilishi, shuningdek, turli olimlarning umumlashtirilgan fikriga asoslanib, biz o'smirlar axloqiy o'zini o'zi anglashining 28 ta tarkibiy qismini aniqladik.

Zamonaviy o'smirlar tegishli axloqiy o'zini o'zi anglash tarkibiy qismlarining tanlangan ro'yxatini aniqlashtirish maqsadida biz oldindan tayyorlangan ekspert so'rovnomasi asosida ekspert bahosini tashkil qildik va o'tkazdik. Ushbu vositaning asosini axloqiy o'zini o'zi anglashning ilgari tanlangan tarkibiy qismlarining ro'yxati tashkil qiladi.

Ekspert so'rovda zamonaviy o'smirlar bilan ishlashda tajribaga ega bo'lgan umumta'lim maktablarining malakali o'qituvchilari (59,5 % / 141 kishi), psixologlari (26,2 % / 62 kishi), ma'muriyat mutaxassislari (14,3 % / 34 kishi) jami 237 nafar ekspert ishtirok etdi.



1-rasm. Kasbiy faoliyat tajribasi bo'yicha zamonaviy o'smir axloqiy o'zini o'zi anglashining tarkibiy qismlarini baholash bo'yicha ekspert so'rovda ishtirok etgan mutaxassislarining miqdoriy xususiyatlari (n = 237).

Ekspert bahosining olingan natijalari jadval shaklida umumlashtirildi, bu esa tegishli ekspert ballarini yig'ish orqali zamonaviy o'smir axloqiy o'zini o'zi anglashining eng muhim tarkibiy qismlarini aniqlashga imkon berdi. Bunda, ekspert baholash so'rovnomasining ko'rsatmalarida ko'rsatilganidek, 7 dan 10 ballgacha (muvofiqlikning o'rtadan yuqori darajasi va muvofiqlikning yuqori darajasi) olgan tarkibiy qismlar zamonaviy o'smirlarga nisbatan dolzarb hisoblanadi. Shunga asosan, ekspertlar sonini (n=237) hisobga olgan holda, biz ekspert ballari yig'indisining muhim diapazonini (oralig'ini) hisoblab chiqdik (1659 balldan 2370 ballgacha), natijada, zamonaviy o'smirning axloqiy o'zini o'zi anglashining dolzarb tarkibiy qismlari aniqlandi.

Shunga ko'ra, 1659 ball va undan yuqori oraliqdagi ekspert ballari yig'indisini olgan o'smirning axloqiy o'zini o'zi anglashining tarkibiy qismlari aniqlandi hamda zamonaviy o'smirning axloqiy o'zini o'zi anglashiga nisbatan dolzarb (ahamiyatli) deb topildi.

Shunday qilib, axloqiy o'zini o'zi anglashning nazariy jihatdan tanlangan tarkibiy qismlari ro'yxatidan biz zamonaviy o'smirning axloqiy o'zini o'zi anglashining quyidagi tegishli tarkibiy qismlarini aniqladik:

*1-jadval*

*O'smirlar axloqiy o'zini o'zi anglashining dolzarb tarkibiy qismlari*

T/r	Axloqiy o'zini o'zi anglashining dolzarb tarkibiy qismlari	Summa - $\Sigma$	O'r.q. - M	Moda - Md
1.	ma'naviy-axloqiy mas'uliyat	2209	9,32	10
2.	axloqiy me'yor	2109	8,90	9
3.	xulq-atvorning axloqiy me'yorlariga munosabat	2095	8,84	9
4.	axloqiy o'zini o'zi baholash	2040	8,61	9
5.	irodaviy o'zini o'zi boshqarish	1947	8,22	9
6.	axloqiy bilimlar	1936	8,17	9
7.	empatik qobiliyatlar	1813	7,65	8
8.	refleksivlik	1769	7,46	8

Tanlangan tuzilmani optimallashtirish uchun, axloqiy o'zini o'zi anglashning tanlangan tegishli tarkibiy qismlarining funktsional xususiyatlarini tahlil qilish natijalariga ko'ra, yuqorida aytib o'tilgan tegishli komponentlar o'rganilayotgan hodisaning tegishli tarkibiy qismlariga birlashtirildi. Ushbu harakatlar zamonaviy o'smirning axloqiy o'zini o'zi anglashning tarkibiy-psixodiagnostik modelining birinchi shartli qismini tasavvur qilishga imkon berdi, bu o'rganilayotgan hodisaning belgilangan tarkibiy qismlarini ta'minlaydi.

Nazariy tahlil natijalari, shuningdek, ekspert bahosi (n=237) zamonaviy o'smirning axloqiy o'zini o'zi anglashning tarkibiy va psixodiagnostik modelini tayyorlashga imkon berdi, o'rganilayotgan hodisani to'rtta o'zaro bog'liq tarkibiy qismlarga asoslangan murakkab ijtimoiy-psixologik tizim sifatida aks ettiradi: kommunikativ-bilish, qadriyatli-motivatsion, emotsional-hissiy va irodaviy-boshqaruv. Kommunikativ-bilish komponentga axloqiy bilimlar va refleksivlik kirdi. Qadriyatli-motivatsion komponentga xulq-atvorning axloqiy me'yorlariga munosabat va axloqiy o'zini o'zi baholashni qamrab oldi. Emotsional-hissiy komponentga shaxsning ma'naviy-axloqiy mas'uliyati va empatik qobiliyatlarini qamrab oldi. Irodaviy-boshqaruv komponent zamonaviy o'smirning irodaviy o'zini o'zi boshqarish bilan, shuningdek, axloqiy me'yori bilan bog'liq.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Одилова Н.Г. Ўсмирлар ахлокий ўз-ўзини англашининг психологик жihatлари // Психология. Бухоро: 2022. №2. Б.93-96.
2. Одилова Н.Г. Психологический аспект изучения нравственного самосознания в подростковом возрасте // “Вестник интегративной психологии”. 2022, №24. Ярославль. – С.265-267.
3. Одилова Н.Г. Особенности целенаправленного развития нравственного самосознания подростков// “Вестник интегративной психологии”. 2023, №27. Ярославль. – С.269-276.
4. Токарева В.А. Психология нравственного развития личности студента: феноменология, типология, закономерности: автореферат дис. ... доктора психологич. наук: 19.00.07 / НИИ общей и педагогической психологии. Москва, 1991. 43с.
5. Шакирова Г.М. Формирование нравственных убеждений на уроках литературы. Разработка уроков для V класса.Т.,1998.